

Semestr davomida talaba muayyan fan bo'yicha 60 balldan kam ball to'plasa, talaba mazkur fandan akademik qarzdar hisoblanadi.

Shuningdek, muayyan fan bo'yicha joriy (mustaqil ta'lif bilan birga) va oraliq nazoratlar bo'yicha jami to'plagan bali 29 ball va undan kam bo'lgan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi va akademik qarzdar hisoblanadi.

<b>6.</b>	<p><b>Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Ismoilov X. Jahon adabiyoti. Darslik. – Toshkent: Donishmand ziysi, 2023.</li><li>2. Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018.</li><li>3. Karimov Sh. Nemis adabiyoti tarixi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.</li></ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU. 2016. – B.56.</li><li>2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston NMIU. 2017. – B.104.</li><li>3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston NMIU. 2017. – B.48.</li><li>4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU. 2017. – B.488.</li><li>5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI.</li><li>6. Antik adabiyotdan xrestomatiyasi. Rim adabiyoti. Oybek. MAT, XV tom. – Toshkent: Fan, 1980.</li><li>7. Saidov U. Yevropa ma'rifatchiligi va milliy uyg'onish. – Toshkent: Akademiya, 2004.</li><li>8. Normatova Sh. Jahon adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.</li><li>9. XX asr jahon adabiyoti: hikoyalari. Mas'ul muharrir va so'z boshi muallifi Jo'raqulov U., nashrga tayyorlovchi Bo'tayev U. – Toshkent, 2009.</li><li>10. XX asr jahon she'riyati. Mas'ul muharrir Aziz Said, nashrga tayyorlovchi Habib Abdiyev. – Toshkent, 2011.</li><li>11. Jahon adabiyoti tarixi. O'UM, O'zMU, 2011. O'zbek filologiyasi fakulteti kutubxonasi.</li></ol> <p><b>Internet saytlari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. <a href="http://www.literature.uz">www.literature.uz</a></li></ol>
<b>7.</b>	Fanning o'quv dasturi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Kengashining 2024-yil " " avgustdag'i " " -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
<b>8.</b>	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b></p> <p>Ismoilov X. – O'zDSMI, "O'zbek va Jahon filologiyasi" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.</p> <p>Isakova G.N. – O'zDSMI, "O'zbek va Jahon filologiyasi" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori.</p>
<b>9.</b>	<p><b>Taqribchilar:</b></p> <p>Jomonov R. – TDMRVaXOM professori, filologiya fanlari nomzodi.</p> <p>Mahmudova S.I. – O'zDSMI, "O'zbek va Jahon filologiyasi" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.</p>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI



**JAHON ADABIYOTI  
O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 100 000 – Ta'lim  
200 000 – San'at va gumanitar fanlar

**Ta'lim sohasi:** 110 000 – Ta'lim  
210 000 – San'at

**Ta'lim yo'naliishi:** **Barcha ta'lim yo'nalishlari uchun**

Fan/modul kodi JA-2014	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3-4	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili o'zbek/rus	Haftadagi dars soatlari 2	
I.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat) Jami yuklama (soat)
	Jahon adabiyoti	60	60 120
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b>  O'quv fanining asosiy vazifasi talabalarni jahon adabiyotini paydo bo'lish tarixi va rivojlanish bosqichlari, jamiyatda tutgan o'mi, vazifalari va shu asosda bu adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi o'mi, adabiyotning asosiy jarayonlari haqida umumnazariy bilimlar bilan tanishtirishdan iborat. "Jahon adabiyoti" fani o'zining shakllanish davrida bosib o'tgan bosqichlar, bu davrlarda ijod qilgan yozuvchi va shoirlar ijodining o'ziga xosligi, Sharq va G'arb adabiyotining mushtarakligi, fanning obekti, predmeti, boshqa turdosh fanlar bilan aloqalar haqidagi fikrlarga turli qarashlar mavjud. "Jahon adabiyoti" boshqa xalqlar adabiyotlari bilan o'zaro aloqada rivojlandi va ular bilan aloqa tufayli boyib bordi. Ushbu fanni o'qtish jarayonida yozuvchi va shoirlarning ijodiy faoliyatini ilmiy va amaliy nazariy o'rnatishga harakat qilinadi.</p> <p>"Jahon adabiyoti" fani umumkasbiy fanlar turkumiga kiritilgan. Institut qoshidagi barcha ta'lif yo'nalishlarda o'qitildi. Mazkur fan adabiyot haqidagi boshqa fanlarning va san'at sohasining rivojida asosiy o'rinn egalladi, o'z rivojida umumkasbiy va ixtisoslik fanlar uchun zamin bo'lib xizmat qildi.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (Ma'ruza mashg'ulotlari)</b>  Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p><b>1-modul. Fanga kirish.</b>  Eng qadimgi davrlar adabiyoti.</p> <p><b>1-mavzu. Antik davr yunon adabiyoti</b>  Qadimgi Sharq adabiyotining antik adabiyot bilan mushtarak jihatlari: mifologiyadagi va eposdag'i mushtaraklik. Gomerning "Iliada" va "Odisseya" dostonlari. Dostonlarning mavzusi, tarixiyligi va mifologik elementlari. Axill va Odisseye obrazlarida aks etgan Gomerning axloqiy-estetik qarashlari. Gesiodning "Mehnat va kunlar" asari. "Mehnat va kunlar" didaktik asar sifatida. Gesiod va Sharq didaktikasi. Yunon lirikasi. Monodik va tantanali lirika. Elegiya va yamb. Yunon lirikasida vazn.</p> <p><b>2-mavzu. Attika va Ellinizm davri yunon adabiyoti</b>  Dramaning paydo bo'lishi. Yunon teatrining xususiyatlari. Ilk dramaturgler: Esxil, Sofokl, Evripid. Aristofan va komediya janri. Yunon prozasi va uning yo'nalishlari. Tarixiy, ritorik, falsafiy proza va ularning badiiy adabiyotga aloqadorligi. Ellinizm davrida yangi komediya. Aleksandriya poeziyasi va uning o'ziga xosliklari. Yunon adabiyotining jahon adabiyotiga ta'siri.</p> <p><b>3-mavzu. Rim adabiyoti</b>  Rim adabiyotining asosiy taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari. Dastlabki Rim shoirlari. Rim adabiyotida tarixshunoslik. Rim adabiyotining "oltin davri". Vergiliyning "Eneida" dostoni. "Bukolikalar" va "Georgikalar". Rim poeziyasing o'ziga xosliklari. Goratsiy ijodi. Goratsiy "Epodlar", "Satiralar"i va "Nomalar"i. Rim elegiyasi va Ovidiy ijodi, Ovidiyning "Metamorfozalar" asari, Imperiya davri Rim adabiyoti, Rim adabiyoti va</p>		

<b>Talabalar bilimini baholash</b>				
Ushbu fan (modul) bo'yicha talabalar bilimini baholash semestr davomida o'quv materiallarini (og'zaki va yozma ishlari) bajarishiga asoslanadi. Dars davomida talabalar 100 ballik tizimda baholanadi. Shundan, talabaning dars mashg'ulotlaridagi ishtiroti, mustaqil ishlari va joriy natijalar uchun 30 ball, oraliq nazorat uchun 20 ball, yakuniy nazorat uchun 50 ball beriladi. Yakuniy nazorat yozma shaklda amalga oshiriladi. Joriy, oraliq va nazorat vazifalari quyidagicha taqsimlanadi:				
<b>TALABALAR BILIMINI BAHOLASH TARTIBI</b>				
Reyting baholash turlari	Maks. ball	Bajariladigan topshiriqlar	Topshiriqla rni bajarilish muddati*	
joriy nazorat, shundan	30	O'quv jarayonining jadvali bo'yicha		
- Dars mashg'ulotlarid agi ishtiroti	10	Talabaning dars jadvaliga muvoffiq ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'ulotlarida ishtirot etishi. Talabalarning dars mashg'ulotlarida ishtirot etishlari majburiy hisoblanadi va talabarning dars mashg'ulotlaridagi faoliyati rag'batlaniriladi	Fanning dars jadvalidagi auditoriya vaqtiga mos holda	
- Seminar mashg'ulotlarda gi faolligi	10	Fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, keys stadi, kazus yoki fabula vaziyatlari topshiriqlar, loyiha, kurs ishi, uy vazifalarini bajarishi	Fanning dars jadvalidagi auditoriya vaqtiga mos holda	
Mustaqil ta'lif, shundan	10	Talabalar mustaqil ishlarini ikki yo'nalishda – auditoriyada va auditoriyadan tashqarida tashkil etiladi		
1-mustaqil ish	5	Reja asosida berilgan badiiy adabiyotlar tahlili	Har bir semestrining 3-5 haftalar	
2-mustaqil ish	5	Reja asosida berilgan badiiy adabiyotlar tahlili	Har bir semestrining 13-14 haftalar	
Oraliq nazorat	20	Yozma ish, test yoki taqdimot shaklida	Har bir semestrining 6 haftalarida	
Yakuniy nazorat	50	Og'zaki, yozma	Tasdiqlanga n jadval asosida	
Jami	100			
<b>Talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari quyidagi jadval asosida hisobga olinadi:</b>				
Ball tizimi	90-100 ball	70-89,9 ball	60-69,9 ball	0-59,9 ball
Baho tizimi	5 baho – "a'lo"	4 baho – "yaxshi"	3 baho – "qoniqarli"	2 baho – "qoniqarsiz"

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- seminarlar (mantiqiy fikrash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>- guruhlarda ishlash;</li> <li>- taqdimotlarni qilish;</li> <li>- individual loyihalar;</li> <li>- jamao bo'lib ishslash va himoya qilish uchun loyihalar;</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b>  Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma yoki og' zaki topshiriqlarni bajarish.</p> <p><b>Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:</b></p> <p>a) "A'lo" ball olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>&gt; fanning moxiyati va mazmunini to'liq yorita olsa;</li> <li>&gt; fandagi mavzularni bayon qilishda xato va chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;</li> <li>&gt; fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;</li> <li>&gt; fan doirasida mustaqil erkin fikrash qobiliyatini namoyon eta olsa;</li> <li>&gt; berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;</li> <li>&gt; nazariy (amaliy) ishlarga puxta tayyorlangan bo'lsa;</li> <li>&gt; mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;</li> <li>&gt; fanga tegishli badiiy adabiyotlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;</li> <li>&gt; fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ijodiy ish taylorlay olsa.</li> </ul> <p>b) "Yaxshi" ball olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>&gt; fanning moxiyati va mazmunini to'liq yorita olsa;</li> <li>&gt; fandagi mavzularni bayon qilishda xato va chalkashliklarga yo'l qo'ymasa;</li> <li>&gt; fan doirasida mustaqil erkin fikrash qibiliyatini namoyon eta olsa;</li> <li>&gt; berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;</li> <li>&gt; nazariy (amaliy) ishlarga puxta tayyorlangan bo'lsa;</li> <li>&gt; mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;</li> <li>&gt; fanga tegishli badiiy adabiyotlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;</li> <li>&gt; fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ijodiy ish taylorlay olsa.</li> </ul> <p>v) "Qoniqarli" ball olish uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>&gt; fanning moxiyati va mazmunini yorita olsa;</li> <li>&gt; fan doirasida mustaqil fikrash qibiliyatini namoyon eta olsa;</li> <li>&gt; berilgan savollarga javob bera olsa;</li> <li>&gt; nazariy (amaliy) ishlarga tayyorlangan bo'lsa;</li> <li>&gt; mustaqil topshiriqlarni bajargan bo'lsa;</li> <li>&gt; fanga tegishli badiiy adabiyotlarni o'zlashtirgan bo'lsa;</li> <li>&gt; fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ijodiy ish taylorlay olsa.</li> </ul> <p>g) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi "qoniqarsiz" baholanishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>&gt; fanning moxiyati va mazmunini yorita olmasa;</li> <li>&gt; fan doirasida mustaqil fikrash qibiliyatini namoyon eta olmasa;</li> <li>&gt; berilgan savollarga javob bera olmasa;</li> <li>&gt; nazariy (amaliy) ishlarga tayyorlangan bo'lmasa;</li> <li>&gt; mustaqil topshiriqlarni bajarmagan bo'lsa;</li> <li>&gt; fanga tegishli badiiy adabiyotlarni o'zlashtirgan bo'lmasa;</li> <li>&gt; fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ijodiy ish taylorlay olmasa.</li> </ul>

keyingi davr Yevropa adabiyoti.

#### 4-mavzu. O'rta asrlar adabiyoti

Sharq va G'arb qahramonlik eposlarining mushtarak jihatlari. Fransuz, ispan, nemis qahramonlik eposlari. XII – XIII asrlarda ritsarlik-kurtuaz adabiyoti. Ritsarlik adabiyotining o'ziga xosliklari va shakllari. Ritsarlik adabiyotida sharqona javonmardlik va axiylik masalalari. O'rta asrlarda shahar adabiyoti va uning janrlari.

#### 2-modul. Jahon adabiyotida Uyg'onish masalasi

##### 5-mavzu. G'arbiy Yevropa Uyg'onish adabiyoti. Fransiya, Angliya, Ispaniyada Uyg'onish davri adabiyoti

Uyg'onish adabiyotining alomatlari va o'ziga xosliklari. Sharq Uyg'onishi va uning belgilari. Jahon madaniyati Uyg'onishining tadriji. Sharq Uyg'onishi va uning ahamiyati. Uyg'onish davri. Sharq va G'arb adabiyotining madaniy aloqalar. Yevropa Uyg'onishining davrlari, omillari va o'ziga xosliklari. Italiya uyg'onishi. Italiya Uyg'onish adabiyotining taraqqiyot bosqichlari. Dante ijodi. Dante – O'rta asrlarning oxirgi va Uyg'onish davrinining ilk shoiri. Petrarka lirikasi. J.Bokachcho va Italiya uyg'onishida nasr, "Dekameron".

Fransua Rable va uning "Gargantuya va Pantagryuel" asarida satiraning roli va ahamiyati. Angliya uyg'onishining dastlabki vakillari. Angliya Uyg'onish g'oyalari va Shekspir ijodi. Shekspir masalasi. Shekspir ijodining davrlari. Shekspir poema va sonetlari. Shekspir tragediya ustasi. Shekspir dramaturgiyasining janrlari va ularning manbalari. Shekspir va jahon dramaturgiyası. Migel de Servantes ijodi. "La Manchlik uddaburon idalgo Don Kixot" romani.

#### 3-modul. XVII - XIX asrlar G'arbiy Yevropa adabiyoti

##### 6-mavzu. Klassitsizm adabiyoti

Klassitsizm adabiyotining taraqqiyot bosqichlari. Klassitsizm adabiyotining o'ziga xosligi. Klassitsizm adabiyotining nazariy asosi va janrlari. Fransuz klassitsizm va uning vakillari. Angliya adabiyotida klassitsizm. Klassitsizm adabiyotining ahamiyati.

##### 7-mavzu. Ma'rifatchilik adabiyoti

Ma'rifatchilik adabiyotining klassik ma'rifatchilikdan farqi va o'ziga xosligi. Angliya ma'rifatchiliği. Ingliz ma'rifatchilik adabiyotining yo'nalishlari, vakillari va janrlari. Fransuz ma'rifatchilik harakatining o'ziga xosligi. F.Volter, D.Didro va J.J.Russo ijodida ma'rifatparlik g'oyalari. Nemis ma'rifatchilik adabiyoti. G.E.Lessing, F.Shiller va I.V.Gyote ijodida ma'rifat masalasi. G'arb va Sharq ma'rifatchiliginining mushtarak va farqli jihatlari. Sharq musulmon ma'rifatchiligidagi mustamlakachilik, milliy parokandalik va ma'rifiy mahdudlik masalasi. Ma'rifatchilik adabiyotining ahamiyati.

##### 8-mavzu. Yevropa romantizm adabiyoti

Romantizmning nazariy asoslari va o'ziga xosliklari, Nemis adabiyotida romantizmning manbalari va shakllari. Aka-uka Grimmlar va Gofman ijodi. Ingliz romantizmida Bayron va Shellining tutgan o'mi. Bayron ijodida shaxs erki va xalq ozodligi masalasi. Fransuz adabiyotida V.Gyugo va J.Sand ijodi. V.Gyugo asarlariда milliy ozodlik mavzusi. Romantizmning tarixiy asarlarda aks etishi. Romantizmning jahon adabiyotidagi o'mi.

##### 9-10-mavzu. Realizm va tanqidiy realizm adabiyoti

Realizm estetikasi. Realizm va tanqidiy realizmning farqli jihatlari. Adabiyotda tanqidiy realizmning paydo bo'lish omillari. Fransuz adabiyotida tanqidiy realizm. F.Stendalning "Qizil va qora", "Parma ibodatxonasi" romanlari. Balzak ijodi. "Gorio ota", "Gobsek", "Yevgeniya Grande" asarlari. P.Merime novellalarida real vogeliqka tanqidiy munosabatni ifodalash. G.Floberning "Bovari xonim" romanida romantizm adabiyotiga

<p>munosabat. Ch.Dikkens va U.Tekkerey ijodi. Nemis tanqidiy realizmning o'ziga xosligi. G.Geyne ijodida realizm va tanqidiy realizmning uyg'unligi.</p> <p><b>4-modul. XX asr va XXI asr boshlari jahon adabiyoti.</b></p> <p><b>11-12-mavzu. XX asr boshlari Amerika adabiyoti</b></p> <p>Geografiyasi, muammolari va o'ziga xosligi. San'at va adabiyotning asosiy vazifasi masalasi. Adabiyotda yangi ijtimoiy muammolalarning paydo bo'lishi. E.Zolya naturalizmi. Dekadentlik adabiyoti. Impressionizm. Simvolizm va uning vakillari.</p> <p><b>13-mavzu. XX asr jahon modernizm adabiyoti</b></p> <p>Modernizm. Modernizm tarixi va taraqqiyot bosqichlari. Modernizmning nazariy va falsafiy asoslari. Modernizm yo'naliishlari: ekspressionizm, abstraksionizm, syurrealizm. Syurrealizm estetikasi. Modernizm va Kafka ijodi. Kamyu va absurd falsafasi. Modernizm va mifologiya. Modernizm va XX asr Sharq adabiyoti.</p> <p><b>5-modul. Zamonaviy adabiy jarayon</b></p> <p><b>14-mavzu. Zamonaviy adabiy jarayon.</b></p> <p>Ommaviy va elitar adabiyot. Zamonaviy fantastika va uning ko'rinishlari. Adabiy androginizm haqida. Zamonaviy ingliz adabiyoti. G.G.Markes hayoti va ijodi. P.Koelyo ijodi.</p> <p><b>15-mavzu. Hozirgi adabiy jarayon va globallashuv</b></p> <p>Hozirgi adabiy jarayon. Adabiyotni o'rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillari. Adabiyot jamiyat tarixi tarkibida. Davrlashtirish tushunchasi, istilohlari va tamoyillari.</p> <p><b>III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar</b></p> <p>Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Antik davri yunon adabiyoti. Mifologiya va badiiy adabiyot.</li> <li>2. Qadimgi yunon mifologiyasi badiiy adabiyotning asosi sifatida.</li> <li>3. Rim adabiyoti xususiyatlari. Avgust va Imperiya davri adabiyoti.</li> <li>4. Jahan adabiyotida qahramonlik eposlarining o'ziga xos jihatlari.</li> <li>5. Fransiya, Ispaniya va Angliya Uyg'onish davri adabiyoti.</li> <li>6. J.B.P.Molyer va La Fonten asarlarining o'ziga xos jihatlari.</li> <li>7. Ingliz ma'rifatchilik adabiyoti. D.Defo "Robinzon Kruzo", J.Swift "Gulliverning sayohatlari".</li> <li>8. Nemis ma'rifatchilik adabiyoti. F.Shillerning "Makr va muhabbat" va Gyotening "Faust" asarlari.</li> <li>9. J.G.N.Bayron va V.Gyugo ijodida romantizm.</li> <li>10. Fransuz tanqidiy realizm adabiyoti. F.Stendal, O.de Balzak va G.Flober ijodi.</li> <li>11. Ingлиз tanqidiy realizm adabiyoti vakillari ijodi.</li> <li>12. M.Tven, T.Drayzer va J.London ijodi.</li> <li>13. E.Xeminguey asarlarida inson matonati va iroda kuchining ifodasi.</li> <li>14. Modernizm va Kafka ijodi.</li> <li>15. G.G.Markes va Paolo Koyelyo ijodi. "Alkimyogar" asarida ramzlar.</li> </ol> <p>Seminar mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llanishi maqsadga muvofiq.</p> <p><b>IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar</b></p> <p>Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Gomerling qahramonlar xarakterini yaratish mahorati ("Iliada" va "Odisseya")</li> </ol>	<p>dostonlari asosida).</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>2. "Iliada" dostonida tarixiylik va mifologik elementlar.</li> <li>3. "Medeya" tragediyasi va "Argonavtlar" qissasi</li> <li>4. "Ilohiy komediya"da Dante ijtimoiy-ahloqiy qarashlarining ifodalaniishi.</li> <li>5. F.Rable "Gargantuya va Pantagryuel" asarida sxolastik tafakkurga qarshi satirk munosabatning ifodalaniishi.</li> <li>6. "Gamlet" Shekspir ijodining cho'qqisi</li> <li>7. "Don Kixot" asarida gumanistik g'oyalarni targ'ib qilinishi.</li> <li>8. "Gulliverning sayohatlari" asarida O.Swift fantastikasining realistik negizi.</li> <li>9. F.Shillerning "Qaroqchilar" tragediyasida erksevarlik g'oyalarni ilgari surilishi.</li> <li>10. Yevropa adabiyotida nasr asarlar taraqqiyoti.</li> <li>11. Gyot "Faust" asarining asosiy g'oyasi.</li> <li>12. Bayron ijodida romantizmning o'mi.</li> <li>13. Stendalning "Qizil va qora" romanida ijobiy qahramon muammosi.</li> <li>14. Balzak asarlarida umuminsoniy qadriyatlari.</li> <li>15. "Bovari xonim" romanida ijtimoiy-siyosiy va estetik xom hayollikni fosh etilishi.</li> <li>16. F.Stendal, O.de Balzak va G.Flober asarlarining o'ziga xos jihatlari.</li> <li>17. E.Xeminguey asarlarida inson matonati va iroda kuchining ifodasi.</li> <li>18. E.Zolyaning "Hamal" romanida mehnat va manfaat masalasi.</li> <li>19. Mopassan hikoyalirida psixologik tahlilining chiqurligi.</li> <li>20. G'arb yozuvchilari ijodida Sharq mavzusi.</li> </ol> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan tayyorgarlik ko'rish, tahliliy materiallar tayyorlash, esse yozish, so'rov nomasi o'tkazish, keys tuzish, taqdimot tayyorlash, tarjima qilish, referatlar tayyorlash amalga oshiriladi va uni taqdimoti tashkil qilinadi.</p> <p><i>Fan bo'yicha kurs ishi.</i> Fan bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejasida ko'zda tutilmagan.</p> <p><b>3.</b></p> <p><b>V. Ta'lif natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p>Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalriga quyidagi talablar qo'yiladi.</p> <p><b>Talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- badiiyat namunalarini individual, milliy va umuminsoniy jihatlarini ilmiy tahlil qilish;</li> <li>- badiiy adabiyot va adabiyot nazariyasining millat va jamiyat ravnraqidagi o'mini va ahamiyati to'g'risida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>;</li> <li>- talabalarda badiiy adabiyotni tushunish;</li> <li>- badiiy asarni idrok qilish hamda uni filologik nuqtai nazardan tahlil va tadqiq etish;</li> <li>- adabiyot va inson o'rtasidagi munosabatni badiiylik qonuniyatlarini asosida rivojlantirish;</li> <li>- badiiy adabiyotda hamda adabiyot nazariyasida yangi shakllanayotgan va ommalashayotgan adabiy hamda ilmiy metod va yo'naliishlarini jamoatchilik fikriga tayangan holda taraqqiy ettirish xususiyatlarini <i>billishi va foydalana olishi</i>;</li> <li>- noyob adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarining jamiyat, millat va shaxs rivojidagi ahamiyatini tushunish;</li> <li>- badiiy asar mohiyatini chuqur anglash, ularni tahlil va talqin qilish;</li> <li>- mavjud matnlarni tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish;</li> <li>- egallangan bilim va malakanli xalq ma'nnaviyatini rivojlantirish yo'lida amaliyotga tatbiq etish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.</li> </ul> <p><b>4.</b></p> <p><b>VI. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ma'ruzalar;</li> <li>- interfaol keys-stadilar;</li> </ul>
--	--